

YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–sentabrida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 33 640,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi.






YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 118,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,5 % ga yetdi.



**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YAHM	26 508,8	33 640,7	107,4
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 612,7	32 511,0	107,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	896,1	1 129,7	108,2
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 612,7	32 511,0	107,4
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 911,3	11 793,9	104,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 813,8	8 664,0	108,4

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	sanoat	5 072,9	6 494,9	106,4
	qurilish	1 740,9	2 169,1	114,1
	Xizmatlar	9 887,6	12 053,1	109,5
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 121,0	2 610,1	110,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 531,9	2 039,7	122,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	6 234,7	7 403,3	106,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 8 740,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga yuqoridir.



**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi va o'sish sur'atlari**




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,6% ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 36,3 % ni, sanoat tarmog'i 20,0 % ni, qurilish 6,7 % ni va xizmatlar sohasi 37,0 % ni tashkil qildi.




**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)**

		2020- yil	2021- yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,6	96,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,4	3,4
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34,8	36,3
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,6	26,7
	sanoat	19,8	20,0
	qurilish	6,8	6,7
	Xizmatlar	38,6	37,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,3	8,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,0	6,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	24,3	22,7




2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil





2021- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 36,3 %), sanoatda – 106,4% (20,0 %), qurilishda – 114,1 % (6,7 %), xizmatlar sohasida – 109,5 % ni (37,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,2 % (8,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 122,4 % (6,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,1 % dan (22,7 %) iborat bo'ldi.



**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,5 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,2 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,4 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,9 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,5 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida
YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2021- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 118,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 126,8 % va sanoat sohasida – 120,3 % qayd etildi.



2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi (YAQQga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 71,8 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-sentabrida – 70,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.